

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI



ORIENTAL
UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
YO'NALISHLARDA
YOSH TADQIQOTCHILARNING O'RNI**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

(2026-yil 10-fevral)



Toshkent – 2026

TAHRIR HAY’ATI

1. **M.A.NASIROVA** – filologiya fanlari nomzodi, professor (mas’ul muharrir).
2. **T.M.ISAQULOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
3. **Sh.G‘.KARIMOVA** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
4. **J.B.MAMADIYOROV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
5. **U.B.MAMANAZAROV** – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
6. **Y.B.MAXMUDOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislariga dalil, raqam va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar masuldirlar.

**PEDAGOGIK SALOHİYAT VA EMPATIYA: TARBIYACHI
FAOLIYATIDAGI MUHIM OMILLAR**
**PEDAGOGICAL POTENTIAL AND EMPATHY: KEY FACTORS IN THE
PROFESSIONAL ACTIVITY OF PRESCHOOL TEACHERS**
**ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И ЭМПАТИЯ: ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ
В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЯ**

Anorxol Baymatova

*O‘zbekiston Respublikasi Oriental universiteti,
“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrası o‘qituvchisi*

E-mail: anorxolboymatova@gmail.com

Tel: +998946245370

Shahzoda Xurramova

*Oriental universiteti “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik salohiyat va empatiyaning tarbiyachi faoliyatidagi o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Empatiya tarbiyachining emotsional sezgirligi, bolalar ehtiyojlarini anglash, muloqot madaniyati va individual yondashuvda hal qiluvchi omil ekani eksperimental va kvalitatif ma’lumotlar asosida isbotlandi. Tadqiqot natijalari empatiyaning pedagogik salohiyatning kognitiv, kommunikativ va amaliy tarkibiy qismlarini sezilarli darajada kuchaytirishini ko‘rsatdi. Empatiyani rivojlantiruvchi maxsus dastur tarbiyachilarda emotsional va kognitiv empatiya, faol tinglash va konfliktni boshqarish ko‘nikmalarini oshirdi. Maqola maktabgacha ta’limda insonparvar, xavfsiz va emotsional qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishda empatiyaning o‘rnini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: pedagogik salohiyat, empatiya, emotsional intellekt, tarbiyachi kompetensiyasi, maktabgacha ta’lim, kommunikativ mahorat, individual yondashuv, bola rivojlanishi, pedagogik psixologiya.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the relationship between pedagogical potential and empathy in the professional activity of preschool teachers. Based on experimental and qualitative data, the study demonstrates that empathy is a crucial factor in a teacher’s emotional sensitivity, understanding of children’s needs, communication culture, and individualized approach. The research findings indicate that empathy significantly strengthens the cognitive, communicative, and practical components of pedagogical potential. The special empathy development program improved teachers’ emotional and cognitive empathy, active listening, and conflict-

management skills. The article substantiates the essential role of empathy in creating a humane, safe, and emotionally supportive environment in preschool education.

Keywords: pedagogical potential, empathy, emotional intelligence, teacher competency, preschool education, communicative skills, individual approach, child development, educational psychology.

Аннотация. В данной статье научно проанализирована взаимосвязь между педагогическим потенциалом и эмпатией в деятельности воспитателя. На основе экспериментальных и качественных данных доказано, что эмпатия является ключевым фактором эмоциональной чувствительности воспитателя, понимания потребностей детей, культуры общения и индивидуального подхода. Результаты исследования показывают, что эмпатия значительно усиливает когнитивные, коммуникативные и практические компоненты педагогического потенциала. Специальная программа развития эмпатии повысила у воспитателей эмоциональную и когнитивную эмпатию, навыки активного слушания и управления конфликтами. Статья обосновывает важную роль эмпатии в создании гуманной, безопасной и эмоционально поддерживающей среды в дошкольном образовании.

Ключевые слова: педагогический потенциал, эмпатия, эмоциональный интеллект, компетентность воспитателя, дошкольное образование, коммуникативное мастерство, индивидуальный подход, развитие ребенка, педагогическая психология.

KIRISH

Mavzuning dolzarblig. Zamonaviy maktabgacha ta’limda tarbiyachi shaxsi va uning pedagogik salohiyati ta’lim jarayonining markaziy omiliga aylangan. Tarbiyachi bolalarning kognitiv, emotsional, ijtimoiy va axloqiy rivojini shakllantiruvchi asosiy shaxs sifatida pedagogik kompetensiyalarning keng qamrovda bo‘lishini talab qiladi. Pedagogik salohiyatning eng muhim psixologik tarkiblaridan biri — empatiya, ya’ni bola hissiyotlarini his qilish, ularni anglash va to‘g‘ri munosabat bildirish qobiliyatidir.

Xorijiy tadqiqotlar (Goleman, 1995; Rogers, 1961; Batson, 2011) empatiya emotsional intellektning asosiy qismi ekanini ta’kidlab, bola–tarbiyachi munosabatlarning sifatini shakllantiradigan determinant sifatida baholaydi. Tarbiyachida empatiya qanchalik yuqori bo‘lsa, bolalarning o‘zini xavfsiz his qilishi, ijtimoiy rivoji va o‘qishga qiziqishi shunchalik kuchli bo‘ladi.

MDH tadqiqotlari (Vigotskiy, Zaporozes, Elkonin) bolaning rivojlanishida kattalar bilan emotsional hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyatini ta’kidlaydi. Mahalliy olimlar (Yo‘ldoshev, Davletov, Murotmusaev) empatiyani tarbiyachi

professionalizmining eng muhim psixologiya–pedagogik koordinatasi sifatida baholashgan.

Pedagogik salohiyatning mohiyati. Pedagogik salohiyat — bu tarbiyachining ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi kasbiy, metodik, psixologik va kommunikativ qobiliyatlar majmuasidir.

Pedagogik salohiyatning asosiy komponentlari: kognitiv (bilim, konsepsiya, metodika), emotsional (empatiya, emotsional barqarorlik), kommunikativ (tinglash, bola nutqini tushunish), ijodiy (innovatsion fikrlash) va reflektiv (o‘z-o‘zini tahlil qilish). Ular birgalikda tarbiyachi faoliyatining professional poydevorini tashkil etadi.

Empatiyaning pedagogik jarayondagi ahamiyati. Empatiya tarbiyachi faoliyatida quyidagi vazifalarni bajaradi: *Emotsional xavfsizlikni ta’minlash, bola ehtiyojlarini to‘g‘ri baholash, konfliktlarni yumshoq hal qilish, muloqot madaniyatini shakllantirish va inklyuziv muhit yaratishda muhim omil hisoblanadi.* Empatiya pedagogik salohiyatning “emotsional yadrosi” hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Maqsad: Pedagogik salohiyat va empatiya o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda ochib berish va tarbiyachi faoliyatida empatiyani rivojlantiruvchi omillarni aniqlash. Vazifalar:

1. Pedagogik salohiyat va empatiyaning nazariy asoslarini o‘rganish.
2. Tarbiyachining empatiya darajasini baholash.
3. Empatiya tarbiyachi faoliyati samaradorligiga qanday ta’sir qilishini aniqlash.
4. Maktabgacha ta’limda empatiyani rivojlantirish metodlarini belgilash.
5. Pedagogik amaliyot uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy yangilik. Tarbiyachi empatiasining pedagogik salohiyat komponentlari bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Empatiyani amalda rivojlantiruvchi 4 bosqichli model ishlab chiqildi. Mahalliy sharoitga mos empatiya chek-listi yaratildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Maktabgacha ta’lim muassasalarida psixolog va tarbiyachilar uchun amaliy qo‘llanma yaratiladi. Empatiya treninglari uchun metodik tavsiyalar beriladi. Inklyuziv ta’limda empatiyani qo‘llashning amaliy yo‘riqnomasi ishlanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot. Tadqiqot konvergent parallel aralash dizayn (convergent mixed-method design) asosida tashkil etildi. Uning afzalligi shundaki: kvantitativ ma’lumotlar (empatiya testlari, pedagogik kompetensiya shkalalari) orqali ob’ektiv ko‘rsatkichlar olindi; kvalitatif ma’lumotlar (intervyu, qaydlar, pedagogik kuzatuv) orqali

tarbiyachilarning emotsional va fikriy holatlari chuqur o‘rganildi; ikki turdagi ma’lumotlar solishtirilgan holda umumiy xolistik xulosa chiqarildi. Tadqiqot 2024–2025 yillarda Toshkent shahri va uchta viloyatdagi 18 ta maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tkazildi.

Ishtirokchilar: Tadqiqotda jami $N = 146$ nafar ishtirokchi qatnashdi. Ular quyidagi toifalarga bo‘lindi:

Jadval 1. Ishtirokchilar toifasi

№	Ishtirokchi toifasi	Soni	Yosh doirai	Tajriba
	Tarbiyachilar	100	23–56 yosh	1–30 yil
	Metodist va psixologlar	12	28–60 yosh	5–35 yil
	Bola–tarbiyachi juftligi	34 juft	3–6 yosh	–

Tarbiyachilar tajribasiga ko‘ra 3 guruhga ajratildi:

- 1–5 yil tajribali tarbiyachilar ($n = 38$)
- 6–15 yillik tajribali tarbiyachilar ($n = 42$)
- 15–30 yillik yuqori tajribali tarbiyachilar ($n = 20$)

Tadqiqotning asosiy qismi 100 nafar tarbiyachi ustida amalga oshirildi. Ularda empatiya darajasi, pedagogik salohiyat komponentlari va faoliyat amaliyoti o‘rganildi.

Tadqiqotda qo‘llangan instrumentlar. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy manbalar asosida ishlab chiqilgan 7 turdagi instrumentlar qo‘llanildi:

Empatiyani baholash testlari. Kognitiv empatiya. Emotsional empatiya. Empatik qayg‘udoshlik. Perspektiva olish qobiliyati

Pedagogik amaliyot chek-listi yaratildi. Ular quyidagi 8 mezondan iborat: bolaga murojaatda ovoz tembri, faol tinglash, emotsional reaksiya, tushuntirish uslubi, stress vaziyatdagi munosabat, konfliktga muhlissiz yondashuv kabilardir.

Tadqiqot jarayoni. Tadqiqotlarimiz 3 bosqichda tashkil etildi: 1-Bosqich: Diagnostika. (2 hafta). Barcha tarbiyachilar quyidagi diagnostikadan o‘tishdi: Goleman kompetensiya shkalasi va Pedagogik amaliyotni kuzatish. Shu bosqichda empatiya darajalari 3 guruhga ajratildi: past empatiya, o‘rtacha empatiya va yuqori empatiya ifoda etish. 2-Bosqich: Tajriba va moderatsiya (8 hafta). Empatiyani rivojlantiruvchi maxsus pedagogik dastur tajriba guruhiga qo‘llanildi: bular quyidagi modullardan iborat: Modullar: Emotsional intellekt mashg‘ulotlari (Goleman modeli), Empatiya trenajeri — vaziyatli keyslar, Faol tinglash usullari, Bola nuqtai nazarini qabul qilish, Inklyuziv vaziyatlardagi emotsional yordam, Refleksiya kundaligi va Bolalar bilan emotsional muloqot texnikalari

Konflikt vaziyatlarida empatik yondashuv. Tajriba guruhi ($n = 50$) bu dastur asosida ishladi, nazorat guruhi ($n = 50$) standart usullarda davom etdi. 3-Bosqich: Post-test. (2 hafta). Barcha instrumentlar qayta qo‘llandi.

Ma’lumotlar SPSS 27 dasturida tahlil qilindi.

Etik mezonlar. Tadqiqot to‘liq etik talablarga mos holda o‘tkazildi: Ishtirokchilardan yozma rozilik olindi, Barcha ma’lumotlar maxfiy saqlandi, Bolalar ishtirokidagi kuzatuvlar “ochiq eshik” tartibida o‘tkazildi va Tarbiyachilar istagan vaqtda tadqiqotdan chiqish huquqiga ega bo‘lishdi.

NATIJALAR.

Ushbu bo‘limda tadqiqotning asosiy natijalari kvantitativ va kvalitatif ma’lumotlarga tayanilgan holda taqdim etiladi. Tahlil Davis IRI empatiya shkalasi, PCKS pedagogik kompetensiya shkalasi, kuzatuv protokollari va intervyu materiallari asosida amalga oshirildi.

Empatiya darajasining dastlabki natijalari. Tadqiqot boshida 100 nafar tarbiyachida empatiya darajasi aniqlandi. Davis IRI shkalasi asosida ular quyidagi guruhlarga ajratildi:

Tarbiyachilarning yarmidan ko‘pida empatiya darajasi o‘rtacha bo‘lib, emotsional kompetensiyaning rivojlanishiga ehtiyoj borligi ko‘rindi.

2. Pedagogik salohiyat va empatiya o‘rtasidagi korrelyatsiya.

Pearson korrelyatsiya tahlili empatiya va pedagogik salohiyatning bir qator komponentlari o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi.

Jadval 2. Empatiya ↔ Pedagogik salohiyat komponenti o‘rtasidagi. bog‘liqlik.

№	Pokazatel	r (korrelyatsiya koeffitsienti)	Izoh
	Empatiya ↔ Kommunikativ mahorat	0.71	Kuchli bog‘liq
	Empatiya ↔ Emotsional barqarorlik	0.64	Barqaror bog‘liq
	Empatiya ↔ Individual yondashuv	0.59	O‘rtacha kuchli bog‘liq
	Empatiya ↔ Pedagogik amaliyot sifatleri	0.55	O‘rtacha bog‘liq

Empatiya tarbiyachining muloqot madaniyati, emotsional barqarorligi va individual yondashuv qobiliyatiga bevosita bog‘liq.

Empatiyani rivojlantiruvchi 8 haftalik dastur natijalari. Tajriba (n = 50) va nazorat guruhi (n = 50) o‘rtasidagi farq sezilarli bo‘ldi.

Empatiya ko‘rsatkichlarining o‘shishi

Jadval 3. Tajriba guruhi: Pre-test ↔ Post-test

№	Komponent	Pre-test	Post-test	O‘shish
----------	------------------	-----------------	------------------	----------------

	Kognitiv empatiya	42.3	61.7	+46 %
	Emotsional empatiya	38.9	64.2	+65 %
	Empatik qayg‘udoshlik	44.1	62.5	+42 %
	Perspektiva olish	40.7	58.3	+43 %

Eng katta o‘shish emotsional empatiyada (+65%).

Jadval 4. Nazorat guruhidagi o‘zgarishlar

№	Komponent	Pre-test	Post-test	O‘shish
1	Kognitiv empatiya	41.9	43.2	+3 %
2	Emotsional empatiya	39.0	40.2	+2 %
3	Umumiy empatiya	41.1	42.0	+2.1 %

Jadval 5. Guruhlar o‘rtasidagi farq (t-test)

№	Komponent	t	p-qiyamat	Izoh
1	Kognitiv empatiya	5.62	$p < 0.001$	Ahamiyatli
2	Emotsional empatiya	8.41	$p < 0.001$	Juda ahamiyatli
3	Kommunikativ mahorat	6.05	$p < 0.001$	Ahamiyatli

Tajriba guruhi empatiyasidagi o‘shish statistik jihatdan juda ahamiyatli ($p < 0.001$).

Kvalitativ (sifat) natijalar. Intervyu va fokus-gruppa ishtirokchilarida quyidagi to‘rt asosiy mavzu shakllandi:

1) *Emotsional sezgirlik oshishi*. Tarbiyachilar bola qo‘rquvi, xursandchiligi yoki xavotirini tez sezishni o‘rganganini ta’kidladi.

2) *Konfliktida yumshoq yondashuv*. Tajriba guruhi tarbiyachilari bolalar o‘rtasidagi mojarolarni tez va barqaror hal eta olgan.

3) *Faol tinglash ko‘nikmalari yaxshilandi*. Bolani tinglash, so‘zini bo‘lmaslik, uning fikrini qayta ifoda qilish — asosiy ijobiy o‘zgarishlardan biri.

4) *Bolalarning emotsional rivojlanishi tezlashdi*. Mashg‘ulotlarda bolalarning: muloqot faolligi, hissiyotlarni ifoda qilish qobiliyati, o‘yindagi hamkorlik va oshgani kuzatildi.

Natijalar bo‘yicha umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak: Empatiya va pedagogik salohiyat o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud. Empatiya tarbiyachining kommunikativ, emotsional va pedagogik amaliy kompetensiyalarini sezilarli oshiradi. 8 haftalik empatiyani rivojlantiruvchi dastur tarbiyachilarda emotsional empatiyani 60– 65 % ga oshirdi va Bolalarda ham ijtimoiy va emotsional faollikning o‘shishi kuzatildi.

MUHOKAMA

Ushbu bo‘limda tadqiqotda olingan natijalar xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, psixologik nazariyalar va amaliyot bilan taqqoslanadi. Empatiya va pedagogik

salohiyatning o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, ularning tarbiyachi faoliyati samaradorligiga ta’siri ilmiy asosda izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining asosiy ma’nosi. Olingan natijalar empatiya pedagogik salohiyatning markaziy psixologik mexanizmi ekanini yana bir bor tasdiqladi. Xususan, empatiyaning kognitiv va emotsional komponentlari tarbiyachining: bolalar bilan muloqot madaniyati, konfliktni boshqarish qobiliyati, individual yondashuv, o‘quv muhitining emotsional xavfsizligi kabi aspektlariga bevosita ta’sir qilishi aniqlandi. Bu natija Goleman (1995), Rogers (1961), Hoffman (2000) kabi olimlarning fikrlari bilan to‘liq o‘z uyg‘unligini topdi.

Empatiya va pedagogik salohiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik: Emotsional intellekt nazariyasi nuqtai nazaridan, Goleman ta’kidlaganidek, empatiya emotsional intellektning (EI) asosiy komponenti bo‘lib, EI o‘sgan sari pedagog: o‘z hissiyotlarini nazorat qilishda, bolalar hissiyotini anglashda, munosabatlarda barqarorlikni saqlashda usunlikka ega bo‘ladi. Tadqiqotda empatiya va emotsional barqarorlik o‘rtasida $r = 0.64$ kuchli korrelyatsiya aniqlandi — bu EI nazariyasini to‘liq tasdiqlaydi.

Vigotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi nuqtai nazaridan esa, bolaning rivojlanishi katta bilan hamkorlikda ro‘y beradi, deb ta’kidlagan. Empatik tarbiyachi: bolaning "yaqin rivojlanish zonasini" to‘g‘ri hisoblaydi; bola ehtiyojlarini his qilib, kerakli qo‘llab-quvvatlash beradi; bolani ruhlantiruvchi muhit yaratadi. Tadqiqotda empatiya yuqori bo‘lgan tarbiyachilarda bolalarning ijtimoiy faolligi va nutqiy jarayoni sezilarli oshgani kuzatilgan — bu Vigotskiy modelining amaliy tasdig‘idir.

Gumanistik pedagogika nuqtai nazaridan, Rogers (1961) ta’lim jarayonida empatik munosabatni insonparvarlikning bosh mezoni sifatida baholaydi. Tadqiqotda fokus-gruppa ishtirokchilari: bolani tinglash, bolaning hissiyotiga hurmat, uyalchaq yoki xavotirli bolaga yumshoq yordam, tarbiya jarayonining sifatini oshirganini ta’kidladi.

Empatiyaning tarbiyachi amaliyotiga ta’siri: Tadqiqot natijalari empatiya pedagogik faoliyatning 4 asosiy sohasini kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatdi:

1) Kommunikativ mahorat. Empatiya \leftrightarrow kommunikativ mahorat o‘rtasida $r = 0.71$ bog‘liqlik — tarbiyachining muloqot madaniyati empatiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

2) Konfliktni boshqarish. Empatik tarbiyachi bolalar o‘rtasidagi mojarolarni tez va yumshoq hal etadi.

3) Inklyuziv muhitni tashkil etish. Empatiya yuqori bo‘lgan tarbiyachi: autistik spektrdagi bolalar, nutq qiyinchiliklari bor bolalar va giperaktiv bolalar bilan individual yondashuvni osonroq ta’minlaydi.

4) Bolaning emotsional barqarorligi. Tajribada empatiya rivojlangan tarbiyachi guruhida bolalarda: xavotir kamayishi, hissiyotlarni ifoda qilish kuchayishi va o‘yinda hamkorlik oshishi kuzatildi.

Empatiyani rivojlantiruvchi dastur samaradorligining ilmiy izohi.

8 haftalik dasturda: emotsional empatiya 65 % ga, kognitiv empatiya 46 % ga, va kommunikativ mahorat 56 % ga oshgani aniqlandi. Bu holat empatiya o‘rganiladigan va rivojlanadigan qobiliyat ekanligini isbotlaydi. Tajribadan so‘ng tarbiyachilar: bola nuqtai nazarini qabul qilish, vaziyatda emotsional tinglash, stressni yumshatish texnikalarini qo‘llash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ldi. Bu natijalar Hoffman (2000) va Batson (2011) modellari bilan mos keladi.

Mahalliy ta‘lim tizimi uchun ahamiyati. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim davlat standarti (2020) tarbiyachida: emotsional sezgirlik, bola ehtiyojlariga munosabat, psixologik qo‘llab-quvvatlash kabi kompetensiyalarni muhim deb belgilaydi. Tadqiqot shu normativlar amaldagi zarur ekani va empatiyani rivojlantirish tarbiya jarayoni sifatini sezilarli oshirishini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, empatiya pedagogik salohiyatning asosiy va ajralmas komponentlaridan biri. Empatiya yuqori bo‘lgan tarbiyachida bolalar bilan muloqotda kam stress, ko‘proq ishonch va samarali faoliyat kuzatiladi. Empatiyani rivojlantirish mumkin va bu pedagogik sifatlarni sezilarli oshiradi. Tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy nazariyalar bilan to‘liq uyg‘un.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda pedagogik salohiyat va empatiyaning o‘zaro bog‘liqligi, tarbiyachi faoliyatidagi roli hamda maktabgacha ta‘lim jarayoniga ko‘rsatadigan ta‘siri kompleks ravishda o‘rganildi. Kvantitativ va kvalitatif natijalarning tahlili quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Empatiya pedagogik salohiyatning asosiy psixologik mexanizmidir. Empatiya tarbiyachining kognitiv, emotsional, kommunikativ va amaliy kompetensiyalarini mustahkamlovchi markaziy omil ekani aniqlandi. Empatiya yuqori bo‘lgan tarbiyachining muloqot madaniyati, emotsional barqarorligi, individual yondashuvi va pedagogik faoliyatining samaradorligi yuqori bo‘ladi.

2. Empatiya va pedagogik kompetensiyalar o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud. Natijalarga ko‘ra, empatiyaning kommunikativ mahorat ($r = 0.71$), emotsional barqarorlik ($r = 0.64$), pedagogik amaliyot sifati ($r = 0.55$) bilan kuchli bog‘liqligi belgilandi. Bu holat empatiya tarbiyachi professionalizmining asosiy indikatori ekanini ko‘rsatadi.

3. Empatiyani rivojlantirish mumkin va bu pedagogik sifatlarda sezilarli o‘shiga olib keladi. 8 haftalik empatiyaning rivojlantiruvchi dasturda emotsional empatiya 65%, kognitiv empatiya 46%, kommunikativ mahorat 56% ga oshgani kuzatildi. Bu natija empatiya tug‘ma emas, balki maqsadli o‘qitish va mashqlar orqali rivojlantiriladigan qobiliyat ekanini tasdiqlaydi.

4. Empatiya tarbiyachi–bola munosabatlarida ijobiy psixologik muhit yaratadi. Tadqiqotda empatiya yuqori bulgan pedagoglar ishlagan guruhlarda bolalarda: emotsional barqarorlik, ijtimoiy faollik, muloqot madaniyati, o‘zini-o‘zi ifoda qilish kabi ko‘rsatkichlarda sezilarli o‘shish qayd etildi.

5. Empatiya inklyuziv ta’limda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Empatiya yuqori bo‘lgan tarbiyachi ehtiyoji yuqori bolalar (autizm spektri, nutq buzilishlari, giperaktivlik) bilan ishlashda yuqori natijalarga erishgani aniqlandi.

6. Tadqiqot natijalari xorijiy va milliy psixologik nazariyalar bilan to‘liq uyg‘undir. Natijalar Goleman, Rogers, Hoffman, Batson, Vygotskiy va Zaporozes tomonidan ilgari surilgan empatiya va rivojlanish nazariyalarini amalda tasdiqladi.

Amaliy tavsiyalar. Tadqiqotdan kelib chiqib, quyidagilarni tavsiya qilish mumkin: maktabgacha ta’lim muassasalarida empatiyaning rivojlantiruvchi o‘quv dasturlarini joriy etish; tarbiyachilar uchun emotsional intellekt treninglari o‘tkazish; validaylar va tarbiyachi bola ehtiyojlarini aniqlaydigan chek-listlardan foydalanish; inklyuziv ta’lim uchun empatik yondashuv asosida maxsus metodik qo‘llanmalar tayyorlash.

Empatiya pedagogik salohiyatning ajralmas qismi bo‘lib, tarbiyachi faoliyatidagi emotsional xavfsizlik, bolalarning ijtimoiy rivoji, konfliktlarning yumshoq hal qilinishi va ta’lim jarayonining samaradorligiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachida empatiya yuqori bo‘lgan holda ta’lim jarayoni insonparvar, barqaror va bola shaxsini qo‘llab-quvvatlovchi muhitga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Batson, C. D. (2011). *Altruism in Humans*. Oxford University Press.
2. Davis, M. H. (1994). *Empathy: A Social Psychological Approach*. Westview Press.
3. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence*. Bantam Books.
4. Goleman, D. (2002). *Working with Emotional Intelligence*. Bantam.
5. Hoffman, M. L. (2000). *Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice*. Cambridge University Press.
6. Rogers, C. (1961). *On Becoming a Person*. Houghton Mifflin.
7. Baron-Cohen, S. (2011). *Zero Degrees of Empathy*. Basic Books.

8. Eisenberg, N., & Strayer, J. (1987). *Empathy and Its Development*. Lawrence Erlbaum.
9. Vigotskiy L. S. (1997). *Psixologiya razvitiya rebenka*. M.: Pedagogika.
10. Zaporozhes A. V. (1986). *Emotsionalnoe razvitie detey doshkolnogo vozrasta*. M.: Prosvetshenie.
11. Elkonin D. B. (1989). *Psixologiya igrы*. M.: Pedagogika.
12. Bodalev A. A. (1995). *Vospriyatie i ponimanie cheloveka chelovekom*. M.: MGU.
13. Karpova G. A. (2018). *Empatiya v deyatelnosti pedagoga*. Sankt-Peterburg: RXGA.
14. Muxina V. S. (2004). *Vozrastnaya psixologiya*. M.: Akademiya.
15. Yo‘ldoshev J. G. (2020). *Pedagogik mahorat va pedagogik muloqot asoslari*. Toshkent.
16. Davletov K. (2019). *Ta’lim psixologiyasi asoslari*. Toshkent: Fan.
17. Murotmusaev K. B. (2023). *Emotsional intellekt va liderlik psixologiyasi*. Toshkent.
18. Hasanboev J. (2018). *Pedagogik texnologiyalar asoslari*. Toshkent.
19. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi (2020). *Maktabgacha ta’lim davlat standartlari*.